

“BOLALARDAGI AGRESSIVLIK HOLATINING SHAKLLANISHIDA SABABLARI MUHITNING AHAMIYATI”

Jabborova Mushtariy Yandash qizi

Buxoro viloyat, Shofirkon tumani 13-IDUM psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxs psixologik holatiga bog'liq ravishda yuzaga keluvchi muhim holat hisoblangan agressiya haqida fikr yuritilgan. Agressiya har bir shaxsning ong osti jarayonidagi izdan chiqish, portlash holati bo'lib, u avvalo insoning o'ziga, uning sog'ligiga ziyon yetkazadi, maqoladan ko'zlangan asosiy maqsad bunday holatning bolalarda yuzaga kelish sabablarini o'rganish, tahlil qilish, ularning oldini olishga doir takliflar kiritishdir.

Kalit so'zlar: *agressiya, tarbiya, ota-ona, ijobiy, ruhiy holat, frusturatsiya, stress, jahldorlik, izdan chiqish, muloqot.*

Bola dunyoga kelishi bilan oq u bu hayotining past-u balandi, og'ir va yengil kunlarini ota-onasi bilan birgalikda boshdan kechiradi, hamisha o'zining ilk tarbiyachisi, ilk ideali sifatida ota-onasini gavdalantiradi, shundan anglashimiz mumkinki, inson hayotining dastlabki davrdan ohrigi kuniga qadar qanday yashashi, hayotda o'z o'rnini topa olishi bevosita oilaviy muhitga, ota-ona e'tiboriga bog'liqdir. Hattoki, bola homilalik davridayoq onaning xatti-harakatlari, hishayajonlarini his etib borishi fan nuqtai nazardan isbotini topgan masala hisoblanadi. Bulardan kelib chiqib aytish mumkinki, boladagi ijobiy yoki salbiy hislatlarni bolaligidanoq shakllantira olish, tarbiya usullarini tog'ri amalda qo'llash ota-ona uchun zarurdir, buning uchun esa ularda nazariy bilimlar, mantiqiy fikrlay olish qobiliyati va eng muhimi ota-onalik ma'suliyati bo'lishi lozim.

XXI asrning eng global muammolaridan biri sifatida bolalarda go'daklik davridan boshlangan agressiyadir, sababi agressiv holatda ulg'aygan bolalar nafaqat o'z hayotiga jamiyatdagi boshqa guruh va qatlamlarning hayot darajaalriga ham ta'sir o'tkazadilar. Shu o'rinda savol tug'iladi: agressiya o'zi nima?, ushbu tushuncha qachondan boshlab jamiyat hayotiga kirib keldi?

Ilmiy adabiyotlarda «agressiya»ga (lotin. aggressio – hujum) «yo'naltirilgan salbiy xulq-atvor, ijtimoiy muhitdagi qoidalar, normalarga amal qilmaslik, insonlarga jismoniy va ruhiy zarar keltirish» deya ta'rif beriladi. Insonlardagi shaxslararo munosabatlarda namoyon bo'luvchi xulq-atvor tiplaridan biri agressiyadir. «Agressiya» tushunchasiga izoh berish qator qiyinchiliklarni tug'diradi, chunki bu atama ko'plab xatti-harakat shakllarini ifodalaydi. Odamlar biron kimsani agressiv shaxs sifatida tavsiflaganlarida, uni boshqalarni haqorat qiluvchi yoki badfe'l, barcha narsani o'zi istaganidek qilishni istaydigan yoki o'z g'oyalarini qat'iy himoya qiladigan, yechimi yo'q muammolar girdobiga o'zini giriftor qiladigan inson kabi ta'riflarni keltirishlarim mumkin. Insonning agressiv xatti-harakatlarga moyilligini turlicha tushuntirishga qaratilgan dastlabki nuqtai nazarlar ichida U. Makdaugoll,

Z.Freyd, G.Marrey va boshqa olimlarning «inson va hayvonlarda agressiyaning tugʻma instinkti mavjud boʻladi», degan qarashlarni ilgari surganlar. Agressiv xulq-atvor haqidagi fikr mulohazalar XX asrning boshlarida frustratsiya¹(aldanish, rejalarning barbod boʻlishi) nazariyasi bilan bogʻliq ravishda yuzaga keldi. Agressiv xulq-atvor xususidagi yana bir nuqtai nazar L.Berkovichning ijtimoiy bilish nazariyasida bayon qilingan. Unga koʻra, maqsadga yoʻnaltirilgan faoliyat davomida vujudga keladigan toʻsiq shaxsda agressiv xatti-harakatlarni hosil qiladi. Nihoyat, agressiv xulq-atvorning kelib chiqish sabablari haqidagi eng zamonaviy yondashuv sifatida Bu konsepsiyada agressiv harakatlar quyidagi jarayonlarning natijalari sifatida baholanadi:

1. Sub'yektning oʻz agressiv xulq-atvorini ijobiy deb baholashi;
2. Frustratsiyaning mavjudligi;
3. Affekt yoki stress tipidagi emotsional qoʻzgʻalishning kuchliligi.

Yuqorida tarjibalar natijasida yaratilgan nazaryalarni tahlil qilsak agressorning oʻz xatti –harakatlariga yetarli darajada baho bera olmasligi, oʻz maqsadlari yoki muammolarini amalga oshirish yoʻlida harakat qilish jarayonida aldanish hissining yuzaga kelishi, inson ruhiyatining izdan chiqib ketishi, stresslar natijasida shaxsning qoʻzgʻaluvchanli ortib ketishining natijasida yuzaga keluvchi holat aggressiya deyish mumkin. Oʻz navbatida yoshga doir agressyalarga toʻxtalganda jamiyatning nozik qatlami hisoblangan bolalardagi agressiya bugungi kundagi muammoli vaziyatlarning debochasi deyish mumkin. Bolalardagi agressiya paydo boʻlishiga koʻra uch xil boʻlishi mumkin :

Biologik holatlar natijasida yuzaga kelgan agressiya: bunday agressiya odatda bolaning ona qornidaligidayoq onadagi ruhiy holatning buzilishi, asabiylik yoki tugʻilish jarayonidagi qiyinchiliklar travmalar, kislorodning yetishmay qolishi, tugʻilishdan keying sariqlik singari simptomlar natijasida yuzaga kelishi mumkin. Bunday bolalar tugʻilgandanoq nevrpotolog nazoratiga olinadi ota-ona tomonidan yetarli darajada eʼtibor koʻrsatilib turilsa tez mudatlarda bola oʻzini tiklab olishi mumkin.

Oiladagi muhit natijasida yuzaga keluvchi agressiya: oilada bolaning ota-onasi tomonidan muntazam ravishda tanqid qilinishi, uning qiziqishlariga yetarlicha eʼtibor bermaslik, yutuqlarini ragʻbatlantirmaslik, boshqalar bilan solishtirish, uning harakatlariga ishonmaslik, baʼzi bir vaqtlarda bolaga keragidan ortiqcha erkalatish ham bolada agressiyaning paydo boʻlishiga olib keladi.

Ijtimoiy holatlar natijasida yuzaga keluvchi agressiya: bunday agressiyalarning yuzaga kelishida atrof-muhit, maktab va maktabgacha yoshdagi bolalarda tengdoshlari orasida oʻz oʻrnini topa olmaslik, ular tomonidan kamsitilish sabab boʻlishi mumkin, bundan tashqari bugungi kunda kinofilmlar va multfilmlardagi salbiy sahnalar bollardagi agreesyoning kuchayishiga sabab boʻlmoqda .

«Bolalar agressiyasi – bolalarga xos tajovuzkorona xatti-harakat. U bolalar alam yoki gʻazab tuygʻularini boshlaridan kechirib, ularni izhor etishning ijtimoiy maqbul usullarini topa olmagan yoki kattalarga taqlidan yoʻl tutgan paytlarda

namoyon bo'ladi. Bola o'z qo'rquvini yashirishga intilgan holatlarda psixologik jihatdan o'zini himoyalash reaksiyasi bo'lishi ham mumkin». Agressivlik holati ko'pchilik kichik yoshdagi bolalarga xos bo'lib, ko'p hollarda agressiv xatti-harakat o'tish davrida kuzatiladi. Bola yosh davrlari inqirozi paytida qiyinchiliklarga ro'baro' bo'ladi, natijada uning xatti-harakatlarida agressiya elementlari kuzatila boshlanadi. Odatda, boladagi tushkunlik, siqilish holatlariga kattalar tomonidan yetarlicha e'tibor qaratilmaydi. Aslida bunday holat bolada chuqur taassurot qoldirib, o'tishi qiyin kechadi.

Bunday bolalar bilan ishlashda agressyani yuzaga keltirayotgan sabab o'rganilishi lozim. Agressyaga moyil bollarning o'zigga xos xususiyatlari mavjud ular quyidagilar:

- xar bir vaziyatda xavf-hatar sezish;
- o'ziga nisbatan salbiy munosabatni his qilish;
- atrofdagilarni salbiy idrok qilish;
- o'zini nazorat qila olmaslik;
- salbiy xatti-harakatlarning natijasini o'ylanmaslik;
- hayvonlarga nisbatan bag'rutoishlik;
- agressyadan zavqlanish, u orqali kuchli bo'lishga ishonish.

Ushbu holatlar kuzatilganda sababga qarshi tizimli chora ishlab chiqish kerak, avvallo ota-ona bolaga e'tibor ko'rsatishi unga sabiylik holatini bartaraf etish uchun

- agressyaga olib kelgan sababni bilish;
- bola bilan do'stona munosabat o'rnatish;
- unga motivatsiya berish;
- siquvga olmaslik, tanqid qilmaslik;
- mashg'ulotga jalb qilish singari vazifalarni bajarishi lozim.

Bunday bolalarni sport bilan xusussan qo'l bilan bog'liq sport turiga berish ulardagi salbiy energiyaning chiqib ketishiga sabab bo'ladi, bundan tashqari rasm chizish, loy yoki plastilindan turli buyumlar yasash, suzish ham yetarlicha foyda beradi, ularga asabiylik paytida qog'oz yirtish ham foyda beradi bu holatda ham boladan salbiy energiya chiqib ketadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki insondagi ehtiyojlar, kamchiliklar yillar davomida o'z-o'rnini boshqasiga bo'shatib to'lmay kelar ekan, bunday keyin ham tugamaydi, otaonalik ma'suliyatini his qilkgan har qanday inson farzandi kelajagiga befarq bo'lmasligi unga yetarlicha e'tibor berishi lozim. Zer, kelajak bugundan boshlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://uz.m.wikipedia.org> Frustratsiya haqida
2. www.samdu.uz Maqola :AGRESSYA. Muxtasam Sulaymonov.
3. www.fayllar.org. Agressyaning turlari uning kelib chiqish sabablari.
- 4.. Agressya va uning turlari, bollardagi agressya. Xonkeldiyeva Komilaxon